


# Science Conference

[www.science-conference.com](http://www.science-conference.com)

a digital platform dedicated to disseminating a wide array of scientific research articles and papers. It serves as a valuable resource for the scientific community and others interested in cutting-edge scientific knowledge and insights.



**2024**  
**Nº 1 (2)**

## **TABLE OF CONTENTS**

QUANTUM SUPREMACY: EXPLORING THE DISRUPTIVE POTENTIAL OF QUANTUM COMPUTING ON CRYPTOGRAPHY AND LEGAL FRAMEWORKS FOR DATA SECURITY.....	2
Islombok Abdikhakimov.....	2
ЗАЩИТА ГОСУДАРСТВЕННОГО СУВЕРЕНИТЕТА В КИБЕРПРОСТРАНСТВЕ	13
Салаят Конысбаев.....	13
RAQAMLI AKTIVLAR SOHASIDAGI JINOYATLAR.....	20
Parvina G'ulommamatova.....	20
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT QONUNCHILIGIDA KIBERJINOYATLARNI TERGOV QILISH VA ULARNING AHAMYATI.....	31
Abbosjon Olimov.....	31
RAQAMLI MUALLIFLIK HUQUQI TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHIYATI, KELIB CHIQISHI, ASOSIY TAMOYILLARI.....	38
Mohinur Bahramova.....	38
Behruz Eshpo'latov.....	38
RAQAMLI BOSHQARUVNING HUQUQIY ASOSLARINI BAHOLASHNING O'ZIGA XOS JIHTLARI.....	45
Jamshid Odilov.....	45
FUQAROLIK SUD ISHLARINI YURITISHDA ADVOKATNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.....	56
Maftuna O'rolova.....	56
MARKAZLASHTIRILMAGAN AVTONOM TASHKIOTLAR (DAO) VA O'ZGARMAS TOKENLAR (NFTS) KABI RIVOJLANAYOTGAN BLOKCHEYN TEXNOLOGIYALARING XALQARO QONUNCHILIKKA POTENTSIAL TA'SIRI..	67
Nazokat Ismoilova.....	67
ZAMONAVIY HUQUQIY PARADIGMA KONTEKSIDA KIBER SPORT SOHASINI TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY VA HUQUQIY JIHTLARI.....	74
San'atjon Ergashev.....	74
KIBERXAVFSIZLIK VA INSON HUQUQLARINI HIMoya QILISH MEXANIZMLARI.....	80
Shohruh Rabbimov.....	80
KIBERMAKONNI TARTIBGA SOLISHDA XALQARO HUQUQNING YANGI YO'NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI.....	88
Xonzodabegim Raxmatova.....	88

## **FUQAROLIK SUD ISHLARINI YURITISHDA ADVOKATNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

**Maftuna O‘rolova**

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

[maftunauralova14@gmail.com](mailto:maftunauralova14@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada raqamli aktivlar, ayniqsa kriptovalyutalar sohasidagi jinoyatlar, ularning sabablari, oqibatlari va oldini olish choralari batafsil tahlil qilinadi. Maqolada legallashtirish, qora bozor savdosi, kiberjinoyatlar va soliq chetlashuvi kabi muammolar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, raqamli aktivlar sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish uchun qonunchilik bazasini mustahkamlash, blokcheyn texnologiyasini rivojlantirish va xavfsizligini oshirish, shuningdek fuqarolarning xabardorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar beriladi. Bundan tashqari, xalqaro hamkorlikning ahamiyati ham ta’kidlanadi.

### **KALIT SO‘ZLAR**

Raqamli aktivlar, kriptovalyutalar, legallashtirish, qora bozor savdosi, kiberjinoyatlar, soliq chetlashuvi

Bugungi kunda davlatatimizda huquqiy demokratik davlat qurish uchun bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda va mazkur islohotlar zamirida fuqarolik protsessda advokat faoliyati masalasiga ham alohida e'tibor berilmoqda. Jumladan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Konstitutsiyasining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'rzasida mamlakatimiz qonunlari advokatlarning samarali faoliyat yuritishi uchun mustahkam zamin yaratgan bo'lsada, advokatura hali ham fuqarolar huquqlarining ishonchli himoyachisiga aylanib ulgurmaganini ta'kidladi. Advokatlarning mavqeい va rolini oshirish, vakolatlarini kengaytirish bo'yicha kelgusida bir qancha chora-tadbirlar ko'rish zarurligini ta'kidladi. <sup>[1]</sup> Shuningdek, Prezidentimizning 2018 - yil 12-maydag'i "Advokatura instituti samaradorligini tubdan oshirish va advokatlarning mustaqilligini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5441-son Farmoni advokatlar faoliyatida uchraydigan muammo va kamchiliklar hal etilishi kerakligini yana bir bor isbotladi. Bu borada bir qancha islohotlara amalga oshirildi. Mazkur islohotlar advokatning huquqlarini kengaytirib, ularning aholi o'rtasidagi mavqeini yanada rivojlantirishga turki bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi qonuning 6 va 7 - moddasida advokatning huquq va majburiyatları keltirgan bo'lib, biz ularni "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi Qonun hamda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi orqali ham sharxlab o'tamiz. Advokat vakil sifatida ishda ishtirok etuvchi shaxs hisoblanadi va FPKning 40-moddasida belgilangan ishda ishtirok etuvchi shaxslarning ish materiallari bilan tanishish, ulardan ko'chirmalar olish, nuxxalar ko'chirish, rad etish to'g'risida arz qilish, dalillar taqdim etish, dalillarni tekshirishda ishtirok etish, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga va odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashayotgan shaxslarga savollar berish, arz qilish, iltimosnomalar taqdim etish, sudga og'zaki va yozma tushuntirishlar berish, sud muhokamasi davomida yuzaga keladigan barcha masalalar bo'yicha o'zlarining vajlarini bayon qilish, boshqa shaxslarning arzlari, iltimosnomalari, vajlariga qarshi e'tirozlar bildirish, davlat ijrochisi tomonidan harakatlar sodir etilishida hozir bo'lish va o'z huquqlarini amalga oshirish huquqiga ega. Mazkur moddada belgilangan sud hujjatlari ustidan shikoyat qilish, sud hujjatlarining majburiy ijrosini talab qilish huquqlari FPKning 69-moddasi

2-qismida belgilangan maxsus vakolatlar toifasiga kirganligi tufayli advokat bu huquqlarga ega emas.

Advokat FPKning 70-moddasiga muvofiq manfaatlari vakolat beruvchining manfaatlariga zid bo‘lgan shaxslarga huquqiy yordam ko’rsatayotganda yoki ilgari yordam ko’rsatganda, mazkur nizo bilan bog‘liq mediasiya tartib-taomilini amalga oshirishda mediator sifatida ishtirok etganda, bundan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan va mediatorning ishtiroki yuzasidan o‘zaro rozilik bo‘lgan hollar mustasno, sudya, prokuror, sud majlisi kotibi, ekspert, mutaxassis, tarjimon bilan qarindoshlik munosabatlarida bo’lsa, sudda vakillik qilishi mumkin emas.

Yuqorida fuqarolik protsessual qonunchilik bo‘yicha vakil vakolatlariga to‘xtalib o‘tildi. Endilikda biz advokatura to‘g‘risidagi qonun hujjatlari asosida advokat vakolatlariga to‘xtalib o‘tamiz. “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”gi Qonuning 4-moddasida advokatning vakolatlari belgilangan, quyida ulardan fuqarolik protsessiga aloqadorlarini izohlab o‘tamiz:

advokat O‘zbekiston Respublikasining butun hududida, shuningdek, agar olingan topshiriqni bajarishni talab etsa hamda tegishli davlatlarning qonun hujjatlariga zid bo‘lmasa, respublika tashqarisida ham advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega;

muayyan ishni olib borishga advokatning vakolatli ekanligi order bilan tasdiqlanadi;

advokat, taraf sifatida, sud ishlarini yuritishning hamma bosqichida protsessning barcha ishtirokchilari bilan teng huquqlarga ega deb mustahkamlangan<sup>[2]</sup>. Mazkur normaga alohida to‘xtalib o‘tish kerak deb o‘ylayman. Chunki ushbu normada “advokat taraf sifatida” degan so‘z qo‘llanilgan. Biroq fuqarolik protsessual qonunchiligida taraflar tushunchasiga biroz boshqacha ta‘rif berilgan. Ya‘ni fuqarolik sud ishlarini yuritishning taraflari da‘vogar (ariza beruvchi) va javobgar deb belgilangan. Advokat esa FPKning 39-moddasiga muvofiq vakil sifatida “ishda ishtirok etuvchi shaxslar” toifasiga kiradi. Shuningdek, 4-moddada advokatning quyidagi huquq va majburiyatları keltirilgan:

qonunda belgilangan tartibda ishning barcha materiallari bilan tanishish va undan zarur ma'lumotlarni ko'chirib olish;

ish materiallari bilan tanishish hamda ishni sudda va boshqa organlarda ko'rish paytidada ovoz yozish qurilmalari hamda boshqa texnika vositalaridan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda foydalanish;

agar jinoyat ishini yuritishda, shuningdek fuqarolik ishini, iqtisodiy ishni yoki ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi ishni ko'rish va hal etishda himoyani yoki vakillikni amalga oshirishni talab etsa, davlat sirlari, tijorat siri yoki boshqa sir hisoblangan ma'lumot bilan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda tanishish;

yuridik yordam so'rab murojaat qilgan etgan yuridik va jismoniy shaxslarga ularning huquqlari va majburiyatlar haqida maslahat berishi;

yuridik yordam so'rab murojaat etgan shaxsning ishiga uning holatini og'irlashtiradigan kasbiy jihatdan yondashmasligi;

ishonch bildiruvchi shaxsning (o'z himoyasi ostidagi shaxsning) nuqtai nazariga binoan noqonuniy qaror chiqarilsa, ushbu qaror ustidan qonunda belgilangan tartibda shikoyat qilishi lozim deb belgilangan<sup>[3]</sup>.

Shu bilan birga advokatning qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquq va majburiyatlar ham mavjud. Ya'ni "Advokatura to'g'risida"gi Qonuning 6-moddasi ham advokatning huquqlari keltirib o'tilgan. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

- tegishli masalalarni hal etishga vakolatli bo'lgan barcha organlar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning topshirig'iga binoan ularning manfaatlarini ifoda etish va huquqlarini himoya qilish;
- yuridik yordam ko'rsatilishi munosabati bilan advokat tomonidan so'ralgan hujjatlarni yoki ularning tasdiqlangan ko'chirma nuxxalarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda berishi kerak bo'lgan davlat organlari va boshqa organlardan, shuningdek korxonalar, muassasalar va tashkilotlardan ma'lumotnomalar, tavsifnomalar va boshqa hujjatlarni so'rash, olish.

Hozirgi kunga kelib amaliyotda advokatlarning mazkur huquqi bilan bog‘liq ayrim muammolarga duch kelyapmiz. Jumladan “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonun bilan ayrim sohalarni tartibga soluvchi qonun hujjatlari, misol uchun, “Notariat to‘g‘risida”gi, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi, “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi qonunlar o‘rtasidagi mavjud nomuvofiqliklar sababli amaliyotda advokat so‘rovida belgilangan hujjatlarni bermaslik holatlari ko‘plab uchrab kelmoqda. Misol qilib shuni aytishim mumkinki, notarial idoralar, bank muassasalari, ayrim tibbiyot muassalari o‘zlarining faoliyatini tartibga solish bilan bog‘liq ayrim qonun hujjatlarini asos qilib ko‘rsatib, so‘ralgan ma‘lumot yoki hujjatlarni berishdan bosh tortish holatlari kuzatilyapti. Shuningdek, yuqorida aytib o‘tilgan muassasalardan tashqari boshqa ayrim korxona, muassasa va tashkilotlar tomonidan advokat so‘roviga belgilangan vaqt ichida javob bermaslik yoki umuman javob bermaslik yoxud so‘rov mazmuniga mos bo‘lmagan javobni berish holatlari ham afsuski uchrab turibdi.

Shu qatorda advokatning mazkur huquqidan qanday tartibda foydalana olishiga e‘tibor qaratish kerak. Ya‘ni advokat to‘g‘ridan - to‘g‘ri ekspertiza muassasasiga yoki mutaxassisga murojaat eta olmaydi. FPKning 95-moddasiga binoan ish muhokamasi vaqtida yuzaga kelgan, fan, texnika, san‘at yoki hunar sohasida maxsus bilimlarni talab etadigan masalalarni tushuntirish uchun sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarning iltimosnomasiga yoki o‘z tashabbusiga muvofiq ekspertiza tayinlashi mumkin. Mazkur normadan shuni tushunish mumkinki, advokat o‘zi mustaqil holda ekspertga murojaat eta olmaydi. FPKning 204-moddasiga muvofiq suda ishni sud muhokamasiga tayyorlash tartibida ishda ishtirok etuvchi shaxslarning fikrlarini e‘tiborga olgan holda, ekspertiza tayinlash va mutaxassis jalb etish haqidagi masalani hal etadi. Demak advokat ishonch bildiruvchi shaxsga yuridik xizmat ko‘rsatishi bo‘yicha ekspertizaga murojaat qilishi shart bo’lsa, 204-moddaga muvofiq ishonch bildiruvchi shaxs yordamida sudga murojaat qilishi lozim, sud esa ekspertiza tayinlash haqida ajrim chiqaradi.

Mazkur holatlarni e‘tiborga olib 2005- yilda Bahrom Salomov yuridik fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertasiyada advokatning huquqi sifatida “yuridik yordam ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan masalalar bo‘yicha ekspert va mutaxassislarni shartnoma asosida jalb qilish va ularning fikr va

xulosalarini mustaqil ravishda so‘rash va olish”ni bevosita protsessual qonunchiligidizda nazarda tutishni taklif qilgan . Ammo mazkur muammo bir qancha yillar davomida o‘z yechimini topmagan<sup>[4]</sup>. Mazkur muammoni yechimini toppish uchun 2020 - yil 10- aprelda regulation.gov.uz portaliga joylashtirilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Advokatura institutini yanada takomillashtirish va advokatlar maqomini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori loyihasi asosida ishlab chiqilgan O‘zbekiston Respublikasida advokaturani rivojlantirish Konsepsiyasida belgilanishi kerak bo‘lgan quyidagi masala keltirilgan: vakolatli ekspertiza muassasasidan olingan, ish materiallariga majburiy qo’shib qo‘yilishi va sud tomonidan ish yuzasidan yig‘ilgan boshqa dalillar yig‘indisi sifatida baholanishi zarur bo‘lgan ekspert xulosasini advokat tomonidan sud muhokamasiga taqdim etish huquqi bilan advokatga sudga qadar tayyorgarlik tartibida vakolatli ekspertiza muassasalarida ekspertizani o‘tkazish tashabbusi bilan chiqish huquqini berish<sup>[5]</sup>. Yuqorida advokat huquqlarining ikkita qonunda belgilanganligiga alohida e‘tibor qaratish kerak. Birinchidan, bu holat ayrim normalarning takrorlanishiga sabab bo‘lgan. Ikkinchidan, advokat huquqlarining ikkita qonunda emas yagona qonunda belgilanishi ko‘proq o‘rinli ahamiyat kasb etadi deb o‘ylayman.

“Advokatura to‘g‘risida”gi Qonuning 7- moddasida advokatning vazifalari belgilangan, unga ko‘ra advokat o‘z professional faoliyatida amaldagi qonun hujjatlari talablariga, Advokatning kasb etikasi qoidalariiga, advokatlik siri va advokat qasamyodiga amal etishi, o‘ziga yuridik yordam so‘rab murojaat qilgan jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning qonunda nazardautilgan vositalari hamda usullaridan foydalanishi zarur deb belgilangan. Advokatning majburiyatlaridan biri hisoblangan Advokatura to‘g‘risidagi qonun 7- moddasiga muvofiq advokatlik sirini saqlashi undan talab etiladi. Shu o‘rinda advokatlik siri tushunchasiga alohida to‘xtab o‘tishimiz kerak bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonuning 9-moddasiga binoan advokat advokatlik sirini saqlashi zarur hisoblanadi. Advokatlik siri tushunchasiga Advokatning kasb etikasi qoidalaringin 15 - bandida kengroq talqinda quyidagicha izohlaydi. Ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) advokatdan yordam so‘rab murojaat etganligining o‘zi, ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs)

yordam so‘rab murojaat etgan masalalar, advokatdan ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) olgan maslahatlar, nasihatlar va tushuntirishlarning mohiyati, advokatning ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) bilan o‘tkazgan suhbatida to‘xtab o‘tilgan barcha masalalar kiradi. Advokat, advokat yordamchisi, advokat stajyori, advokatlar byurolari, hay‘atlari va firmalari mansabdor shaxslari va texnik xodimlarining advokatlik siri bo‘lmish ma‘lumotlarni oshkor etishi va bu ma‘lumotlardan o‘z manfaatlari yoki uchinchi shaxslar manfaatlari yo‘lida foydalanishi man etiladi<sup>[6]</sup>. Mazkur advokatlik sirini saqlanishi ham advokatlar uchun majburiyat etib belgilangan. Advokatlik siri vaqt va chegaratanlamaydi. Ishonch bildiruvchi shaxsdan boshqa hechkim advokatni advokatlik sirini saqlash bilan bog‘liq majburiyatdan ozod eta olmaydi.

Advokaturaga doir ikkita qonunimizda mazkur norma bilan bog‘liq nomutanosibliklar mavjud. Ya’ni bular “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”gi Qonuning 2-moddasi 4-xatboshisida advokatlik faoliyatining asosiy prinsiplari sifatida “qonun hujjalarda man etilmagan usullar va vositalarni qo‘llash” belgilangan bo‘lib, yuqorida berilgan norma mazkur prinsipga nomuvofiqdir. Mazkur normalarning 70-moddada belgilanmagan tomonlariga to‘xtalib o‘tish joiz deb o‘layman: Agar advokat bevosita yoki bilvosita mazkur ishdan shaxsan manfaatdor bo‘lsa, bu holatda unga ishonch bildiruvchi shaxsning (himoya ostidagi shaxsning) manfaatlariga zid kelsa, yuridik yordam ko‘rsatish haqidagi topshiriqni qabul qilishga haqli emas. Advokat qaysi shaxsning manfaatlarini himoya qilish topshirig‘ini olgan bo‘lsa, o‘z vakolatlaridan ushbu shaxsning zarariga foydalanishga haqli emas<sup>[7]</sup>. 7-moddada nazarda tutilgan yana bir normaga e‘tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Mazkur moddada jinoyat ishtirok etishga tayinlangan advokat fuqaroning to‘lovga qobiliyatsizligini vaj qilib, unga yuridik yordam ko‘rsatishdan bosh tortishga haqli emasligi mustahkamlanib qo‘yilgan. Jinoyat protsessual qonunchiligidagi himoyachini tayinlash va yuridik yordam uchun to‘lovdan qisman yoki batamom ozod etish singari normalar belgilan qo‘yilgan. Shu bilan bir qatorda “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonunning 11-moddasida shaxs to‘lovga qibiliyatsizligi tufayli ko‘rsatilgan yuridik yordam haqini to‘lashdan ozod etilganda, jinoiy ishni ko‘rib chiqishda qatnashishga tayinlangan advokatning yuridik yordami uchun haq

to‘lash O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda davlat hisobidan amalga oshirilishi tartibi mustahkamlangan. Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, agar jinoyat protsessida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi mustaqil tarzda himoyachi topa olmasa unga himoyachi tayinlanadi, shu bilan birga agar yuridik xizmatga haq to‘lashga ularning imkoniyati bo'lmasa, haq to‘lashdan qisman yoki batamom ozod qilinishlari mumkin. Biroq bunday norma fuqarolik protsessual qonunchilikda 2024 - yil 27 - fevralga qadar mavjud emas edi. Aynan mazkur masala ko‘plab muhokamalardan so‘ng qonunchilikka kiritildi. FPKning 67- moddasiga qo‘sishimcha tarzda yangi qism sifatida kirtildi. O‘ylaymizki bu o‘zgarishlar keljakda fuqarolarning o‘z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda yetakchi rol o‘yaydi.

Advokat rioya etishi shart bo'lgan yana bir qancha qoidalar mavjud bo'lib, mazkur qoidalar O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining II Konferensiyasining 2013- yil 27 - sentyabrdagi qaroriga ilova sifatida tasdiqlangan “Advokatning kasb etikasi Qoidalari”dir. Mazkur qoidalarda ham yuqorida keltirib o‘tilgan qoidalar kabi quyidagicha belgilangan:

Ish yuzasidan ishtirok etish topshirig‘ini tayinlash yoki bitim (shartnoma) bo‘yicha qabul qilgan advokat ishonch bildiruvchi shaxsning (himoya ostidagi shaxsning) to‘lovg‘a qobiliyatsizligini vaj qilib, himoya qilishdan bosh tortishga haqli emas va murojaat etgan ishonch bildiruvchi shaxsning (himoya ostidagi shaxsning) ishi yuzasidan sud hukmi ustidan apellyatsiya shikoyatini tayyorlash va uni berish bosqichiga qadar bo‘lgan vaqtida himoyachi vazifalarini bajarishi kerak deb mustahkamlangan . Mazkur qoidalalar ham advokatning jinoyat protsessidagi faoliyatiga doir hisoblanadi. Fuqarolik protsessda advokatga apellyatsiya shikoyatini tayyorlash va uni berish bosqichiga bo‘lgan vaqtgacha vakilllik qilish majburiyati yuklatilmagan. Lekin, yuqorida keltirib o‘tilgan “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”gi Qonuning 4-moddasida keltirilgan advokatning ishonch bildiruvchi shaxsga nisbatan (o‘z himoyasi ostidagi shaxs) muvofiq noqonuniy qaror chiqarilsa, mazkur qaror ustidan qonunda belgilangan tartibda shikoyat qilishi kerakligi majburiyati nafaqat jinoyat protsessida, balki barcha protsesslarda advokatning yuqorida berilgan vazifani bajarishi kerakligini

anglatadi. Shuningdek, ushbu qoidalarda qonun va axloq normalari advokatlik kasbida ishonch bildiruvchi shaxsning (himoya ostidagi shaxsning) xohish-irodasidan ustunligi, ishonch bildiruvchi shaxsning (himoya ostidagi shaxsning) qonunga rioya qilmaslikka yoxud qoidalarda belgilangan normalarni buzishga qaratilgan har qanday xohishi, iltimosi yoki ko'rsatmasi advokat tomonidan bajarilishi mumkin emasligi mustahkamlangan. mazkur qoidalalar advokatlar amal qilishi shart bo'lgan umumiy qoidalarni, advokatning kasbiy nufuzi va shaxsiy qadr qimmatiga aloqador bo'lgan qoidalarni, ularning o'zaro munosabatlarini, ishonch bildiruvchi shaxs bilan munosabatlarini, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, sudlar, boshqa davlat va jamoat tashkilotlari va o'zga tashkilotlar bilan munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan.

Shu o'rinda shuni aytib o'tish joizki, FPKning 359-moddasiga ko'ra chet el fuqarolari va chet el tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi sudlariga murojaat qilish va ular fuqarolik protsessual huquqlardan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng ravishda foydalanish huquqiga ega. Ammo ular vakil sifatida chet el advokatining xizmatidan foydalana olishmaydi. Sababi milliy qonunchilikimizga binoan oliv yuridik ma'lumotga ega bo'lgan va advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyani belgilangan tartibda olgan O'zbekiston Respublikasining fuqarosi O'zbekiston Respublikasida advokat bo'lishi mumkin deb mustahkamlangan<sup>[8]</sup>.

Chet el fuqarolari va chet el tashkilotlarining protsessual huquqlarini to'laqonli ravishda ta'minlash uchun milliy qonunchilikimizga chet el advokatlarning faoliyatiga ruxsat beruvchi normalarni kiritish maqsadga muvofiqdir. Chunki chet el advokatlarini fuqarolik protsessiga jalb qilish ham yuqoridagi toifa vakillarining huquqlarini ta'minlash, balki advokatura sohasida raqobatning vujudga kelishi va sohaning rivojlanishiga ijobiy yo'sinda ta'sir etadi. Fuqarolik protsessual qonunchilikdagi yana bir jihatni inobatga olish kerak deb o'ylayman. Ya'ni FPKning 223-moddasiga binoan keyinga qoldirilgan ishni ko'rish qolgan joyidan davom ettiriladi. Lekin, agar ish ushbumazkur Kodeksning 39-moddasida keltirilgan yangi shaxslarni jalb qilish sababli keyinga qoldirilsa, ish muhokamasi boshidan boshlanadi. Yuqorida ta'kidlanganimizdek, FPKning 39-moddasida ishda ishtirok etuvchi shaxslar keltirilgan bo'lib, vakil ham ulardan biri demakdir. Shu o'rinda quyidagicha

savol tug‘iladi. Yuqorida keltirib o‘tilgan norma vakilga, xususan, advokatga nisbatan qo‘llaniladimi? Ya‘ni ishda ishtirok etuvchi shaxslar ishga vakilni jalg qilish uchun ishni keyinga qoldirishni so‘rashi mumkinmi va vakil ishga jalg qilinganidan keyin ish muhokamasi boshidan boshlanadimi? Mazkur holatda vakil protsessning istalgan bosqichida ishga jalg etilishi mumkinmi, uni ishga jalg qilish tartibi masalasi afsuski ochiq qolmoqda. Fuqarolik protsessual huquqiga doir darsliklarimizda mazkur savollarga javob bo‘la oladigan nazariy asoslar ham mavjud emas. Jinoyat protsessual qonunchiligiga muvofiq himoyachining ishda ishtirok etishiga jinoyat protsessining har qanday bosqichida ruxsat beriladi. Ishga yangi kirishgan prokurorga yoki himoyachiga sud muhokamasida ishtirok etishga tayyorgarlik ko‘rish uchun kerakli bo‘lgan vaqt berilishi shart. Shu kabi normalarni fuqarolik protsessual qonunchilikka kiritish bizning fikrimizcha, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

## **ADABIYOTLAR**

[<sup>1</sup>] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagি ma’ruzasi. 08.12.2016 <https://president.uz>

[<sup>2</sup>] O‘zbekiston Respublikasining 1998 yil 25 dekabrda qabul qilingan “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g’risida”gi Qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.12.2020 y., 03/20/651/1577-son.

[<sup>3</sup>] O‘zbekiston Respublikasining 1998 yil 25 dekabrda qabul qilingan “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g’risida”gi Qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.12.2020 y., 03/20/651/1577-son.

[<sup>4</sup>] Salomov B. O‘zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyati, uning kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi (tajriba va muammolar) yurid.fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan Dissertasiya. . – Toshkent.: TDYuI. 2005. – 368 b.

[5] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Advokatura institutini yanada takomillashtirish va advokatlar maqomini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori loyihasi. <https://regulation.gov.uz>

[6] Advokatning kasb – etikasi qoidalari

[7] O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 27 dekabrdagi “Advokatura to'g'risida”gi Qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.09.2019 y. , 03/19/566/3734-son.

[8] O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 27 dekabrdagi “Advokatura to'g'risida”gi Qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.09.2019 y. , 03/19/566/3734-son.